

**KOXLEAR IMPLANTATSIYA: TEXNOLOGIYA, TIBBIYOT,
SURDOPELAGOGIKA VA LOGOPEDIYANING RIVOJLANISHIDAGI INNOVATSIYA**

Dilfuza Pulatova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Madinabonu Makhkamova

Sitora Toyirova

Shahlo Juraqulova

Munojat Xalillayeva

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Logopediya 21.1 guruh talabalari
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: *Nutqni tushunishni rivojlantirish logopedik ta'sirning asosiy vazifasi passiv lug'at boyligini to'ldirishdan iborat. Bolalarga o'yinchoqlari, tana a'zolari, kiyimkechaklari, jonivorlar, alohida predmet va hodisalar nomlari va shu kabilarning nomlarini eslab qolish taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *koxlear implantatsiya, texnologiya, tibbiyot, surdopedagogika, logopediya, rivojlanish, innovatsiya.*

ABSTRACT: *Development of speech understanding The main task of logopedic influence is to fill the wealth of passive vocabulary. Children are invited to remember the names of their toys, body parts, clothes, animals, special objects and events, and so on.*

АННОТАЦИЯ: *Развитие понимания речи Основная задача логопедического воздействия состоит в восполнении богатства пассивного словарного запаса. Детям предлагается запомнить названия своих игрушек, частей тела, одежды, животных, особых предметов и событий и так далее*

Jahonda imkoniyati cheklangan bolalar va kattalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi, mobil' adaptatsiyasini rivojlantirishning innovasion mexanizmlari amaliyotga keng joriy etilmoqda. YuNESKO tomonidan qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" xalqaro dasturi asosida rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlariga mos ta'limni tashkil qilish, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy faollik motivatsiyasini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarning g'urur va qadr-qimmatini oshirish orqali inklyuzivlashgan jamiyatga erishish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahonda ta'lim barcha uchun hamda bir umrlik ta'lim tamoyillariga asoslangan inklyuziv ta'limni tashkil etishning ilg'or tendensiyalari hamda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning variativ texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha AQSh, Fransiya, Germaniya, Koreya, Ukraina, Avstriya, Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston

davlatlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Nogironlikni erta aniqlash va o'rnini qoplash texnologiyalari yordamida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabgacha va maktab ta'limini samarali egallash imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4680-sonli qarorlarini hayotga tatbiq etishdan asosiy maqsad bolalarni qanday rivojlanishidan qat'iy nazar, milliy mafkura asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashdan iborat. Undan maqsad bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanganlik darajasi hamda o'zlashtirish imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularga mos ravishda ta'lim mazmunini belgilashga pirovard natijada to'liq maktabga tayyorlashga qaratilgan. O'zbekiston inson hayotini himoyalashda, jamiyat fuqarolarining alohida yordamga muhtoj bo'lgan qatlamiga, ya'ni ularning yashash, ta'lim olish, jamiyatda o'z o'rinlarini topish masalalariga e'tibori doirasini tobora kengaytirib borayotgan davlatlardan biri ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilmoqda. Ya'ni barcha islohatlarning markazida bo'lgan ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar uning tarkibiy qismi hisoblangan maxsus ta'lim tizimini ham qamrab olmoqda. So'nggi yillarda maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tadbirlar nafaqat sohaning moddiy-texnika bazasi, balki ta'lim sifatini ta'minlashni ham nazarda tutadi.

Jahon Sog'liqni saqlash Tashkilotining 2021 yil 20 mart ommaviy axborot vositalarida ee'lon qilgan ma'lumotnomasida jahon miqyosida ehitishda nuqsoni bor shahslar to'grisi haqida yangi dalil va raqamlar keltirilgan. Shunga ko'ra, Butun dunyo aholisining 8 % ortig'i, yoki jami 466 million odam (bularning 432 millioni katta yoshdagilar, 34 millioni bolalar). Tahminlarga ko'ra 2050 yilga kelib, 900 milliondan ziyod odamlar karlik shitmaslik tufayli nogironlikka mahkum bo'ladilar.

Respublikamizda 2019 yili bolalarda 3000 ta og'ir karlik va ehitishi zaiflik holati aniqlangan bo'lsa, 2021 yili esa, zamonaviy diagnostika usullaridan foydalangan holda, o'tkazilgan adio skrinning bo'yicha bu ko'rsatkich 5 mingdan oshdi.

Respublikamizda har yili tg'ilish soni 730-770 ingga etganligi ahamiliyatlidir. E'tiborlisi, tishfokor-mutaxassislarining ilmiy-tibbiy kuzatishlariga ko'ra, mazkr tg'ilgan chaqloqlarning 300-500 tasi koxlear –implantatsiyaga muhtojdir. Shuning o'ziyoq, zimmamizga lkan vazifalar, ma'sliyatlar yuklaydi, albatta.

Eshitish qobiliyati yo'qolgan yoki zaiflashgan ming-minglab nogironlarning mushkulini engil qilish uchun ko'plab maxsus eshituv moslamalari mavjud. Blar koxlear implantantlar va boshqa yordamchi vositalardir.

Ma'lumki, koxlear implantatsiya-kimmatbaho eshituv moslamasidir. Buning tarkibiga kirgan qo'shimcha yordamchi vositalarning mmiy narhi o'rtacha 150-300 million so'mni tashkil etadi. Eshitv moslamasining asosi esa qimmatbaho koxlear

implant hisoblanadi bu noyob vosita dunyoning 5ta davlatida, shulardan biri Avstriya korporatsiyasining jahonga mashhur “Medel” va “Koxlear” kompaniyalarda ishlab chiqariladi. Mazkr tashkilot bilan respublikamizda yaqin hamkorligimiz davom etmoqda.

2020 yilning 18 dekabr kuni «Zamin» fondi Vasiylik kengashining raisi Ziroat Mirziyoeva dasturda ishtirok etayotgan 36 nafar bolalar, ularning ota-onalari va shifokorlar bilan uchrashdi. Ishtirokchilar jarrohlik amaliyotining natijalari va taassurotlari bilan o‘rtoqlashdi. Fondning dasturiga ko‘ra, kelgusi yilda ham ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilari uchun 30 dan ortiq koxlear implantasiya bo‘yicha jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Darslikda koxlear implantli bolalar bilan ish asosiy reabilitatsiya ishlari ochib berilgan, eshitishda nuqsoni bo‘lgan koxlear imalantantli bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish yo‘nalishlari; eshituv idrokini va boshqalar nutqini tushunishini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan usullarni; koxlear implantantli bolalarda eshituv idroki va tovush talaffuzi korreksiyasi; ularda lug‘at boyligini oshirish; nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Ulardagi faol nutq va intellektual nogiron shaxslarni ijtimoiy reabilitasiyalash va moslashtirish uchun mo‘ljallangan.

Koxlear implantli bolalarda nutq nuqsoni shakllarini hisobga olib bola bilan individual ishlarning istiqbol rejasini tuzish; individual va frontal korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish; koxlear implantli bolalar bilan individual va frontal mashg‘ulotlar konspektlarini tuzish; koxlear implantli bolalarga korreksion maqsadda eshituv idrokini va nutqni rivojlantiruvchi usullar, metodikalar, didaktik o‘yinlar, texnologiyalarni tanlay olish va logopedik mashgulotlar davomida qo‘llash ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Darslikning maqsadi talabalarga koxlear implantli bolalar bo‘yicha olgan bilimlarini o‘z ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlarida qo‘llay olish; koxlear implantli bolalar eshituv idrokini va nutqini rivojlantirishning zamonaviy metod va texnologiyalarini amaliyotga foydalanishdan iborat.

Ushbu bilimlarni o‘zlashtirish: "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari", "Nevropatologiya", "Neyrofiziologiya", "Neyropsixologiya", "Psixolingvistika", "Logopediya", "Adiologiya va surdotexnika" kabi oldingi o‘quv kurslariga tayanadi. Talabalarning yuqoridagi kurslar bo‘yicha egalangan bilimlari ularning nutq buzilishi etiologiyasi, mexanizmlari, belgilarini tushunishlariga yordam beradi, nutq patologiyasi mavjud shaxslarga kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik ta'sir ko‘rsatishdan mazmunli foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Korreksion ishning turli usul va metodlarini bilish talabalarga reabilitatsiya usullari tizimida koxlear implantli bolalar bilan ish fanning o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Darslik amaldagi dasturga muvofiq yozilgan bo‘lib, 3 qismdan tashkil topgan.

Birinchi qismda ("Koxlear implantli bolalar reabilitatsiyasining nazariy asoslari") mazkr fanning predmeti, tamoyillari, usullari, tabiiy-ilmiy asoslari ko'rsatib berilgan; ushbu fanning asosiy tushunchalarini ochib berilgan.

Ikkinchi qismda ("Koxlear implantantli bolalar reabilitatsiyasining umumiy tizimida logopedik ishlarning o'ziga xosligi ") koxlear implantli bolalarda nutqiy tizim va og'zaki nutqni rivojlantirishning o'ziga xosligi bayon etilgan.

Uchinchi qismda ("Mutaxassislar va koxlear implantli bolalar ota-onalari bilan logopedning hamkorlik shallari ") Surdopedagog, surdolog ,logoped va ota-onalarning hamkorlik shakllari uchun tashkiliy-metodik tavsiyalar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramova X, Aralova I. Maktabgacha ta'lim ypshidagi bolalarni nutq nuqsonlarini korreksiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari. „Xalq ta'limi“ O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining Ilmiy-metodik jurnali 2021
2. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. "Nasaf"2000 y.-80 b.
3. Talipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari: O'rta maxsus va kasbhunar ta'limi muassasalari biologiya o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2002.
4. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005.
5. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>
6. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).